https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Farg‘ona davlat universiteti

Adabiyotshunoslik yo'nalishi

1-bosqich magistranti

Xolmatova Tabassum

Ilmiy rahbar: **Habibulla Jo'rayev**

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJODIY MEROSINING O’RGANILISHI HAQIDA

Annotatsiya. Maqolada Bobur va uning ijodiy merosi, tabiat tasviri o’rganilgan “O’zbek tili va adabiyoti”, “Sharq yulduzi”, “ Tafakkur”, “ Til va adabiyot ta’limi” jurnallaridagi maqolalar tahlil qilinadi. Maqolalarning o’xshash va farqli xususiyatlari sanalib, tasniflanadi.

Аннотация. В статье анализируются статьи в журналах «Узбекский язык и литература», «Звезда Востока», «Мысль», «Язык и литературное образование», посвященные Бабуру и его творческому наследию, изображению природы. Перечисляются и классифицируются сходные и различные черты статей.

Abstract. The article analyzes articles in the journals “Uzbek language and literature”, “Star of the East”, “Thought”, “Language and literature education”, which study Babur and his creative heritage, and the image of nature. The similar and different features of the articles are listed and classified.

Kalit so’zlar: Lirika, badiiyat, adabiy jarayon, peyzaj, uslub.

Ключевые слова: Лирика, искусство, литературный процесс, пейзаж, стиль.

Keywords: Lyrics, art, literary process, landscape, style.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Adabiyotimizdagi har bir davrning o’zi o’zicha go’zal. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz uzoq va olis tarixga ega ekanligi, ma’lum qonuniyatlar asosida rivojlanib, takrorlanmas qiyofa kasb etishi bilan boshqa davrlardan farqlanib turadi. Mumtoz adabiyotimizni esa shohlikda shoirlik qilgan, shoirlikda shoh bo’lgan dilbar shaxs- Bobur ijodisiz tasavvur qilish qiyin

Quyida aynan o'rganishlarimiz bo'yicha maqolalar berilgan:.

2. Bobur va uning ijodiy merosi o’rganilgan maqolalar. Bu turdagi maqolalarni quyidagi turlarga bo’lib o’rganish mumkin:

2.1. Bobur va uning ijodiy merosi tilshunoslik nuqtayi nazaridan o’rganilgan maqolalar:

a) Ansoriddin Ibrohimov. Bobur asarlaridagi forscha leksika (“O’zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2010- yil 1-son).

Maqolada shoirning “Hind devoni” va “Devon”dagi forscha she’rlari, “Boburnoma”dagi forsiy parchalar hamda naqllar, “Aruz” risolasidagi forsiy so’zlar miqdori va ularning asardagi o’rniga to’xtalib o’tiladi. Sanalgan asarlardan misollar keltirilgan. Ta’kidlash joizki, maqolada “Devon”, “Mubayyin”, “Aruz” asarlaridagi fors, arab, turk tilidagi so’zlarning salmog’i jadval ko’rinishida taqdim etilgan. Xususan, Boburning jami asarlaridagi forsiy so’zlar miqdori asarlardagi ulushiga ko’ra gistogramma shaklida berilgan. Bobur asarlaridagi forscha so’zlar yasalish usuliga ham alohida to’xtalingan. Boburning fors tili imkoniyatlaridam asar janri va g’oyasiga mos tarzda tanlaganligi ham alohida e’tirof etiladiki, bu ham bevosita ulug’ ajdodimiz shaxsiyatidagi yangi qirralarni ochishga muhim bir debocha bo’lib xizmat qiladi.

b) Z. Jo’raboyeva. “Boburnoma”da ekologik tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar (“O’zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2013- yil 2-son).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maqolada ekologiya va ekolingvistika haqida umumiy ma'lumot beriladi. Ekologik tushunchalarni ifodalovchi leksemalar haqida ma'lumot berilib, ayni shu borada "Boburnoma" ning ekolingvistik qimmati alohida ta'kidlanadi. Asardagi gidronimlar, meva nomlari, giper- giponimik (jins-tur munosabati; mevalar misolida), meva navlarini iqlimlashtirish, toponimlar, zoonimlar, tabiiy ofatlar, hududlarning o'ziga xos atmosferasi ham tahlilga tortiladi. Mazkur hodisalarni ifodalash tili alohida e'tirof etiladi. Ushbu turdagi izlanishlar fanlar orasidagi integratsiyasini yanada kuchaytirib, yangi-yangi ilm sohalarni kashf etishga chorlaydi.

d) Gulnoz Xalliyeva. "Bobur g'azallari semantikasi" ga oid tadqiqot ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2012-yil 6-son).

Maqolada I.V. Steblevaning "Bobur g'azallari semantikasi" nomli tadqiqot haqida ma'lumot beriladi. Ayniqsa, tadqiqotning uchinchi bobi "Bobur g'azallari obrazlar sistemasining tuzilish prinsipi" alohida tahlil etiladi. Obraz yaratishdagi nazariy fikrlar misollar bilan isbotlanadi. Ijodkor g'azallaridagi kun-tun, zulmat-yorug'lik, vafo-jafo, visol-ayriliq, hayot-o'lim, shoh-gado antitezalari motivlarni yuzaga keltirgani ko'rsatilgan.

Xullas, I.V.Steblevaning Bobur g'azallari semantikasi borasidagi tadqiqotini kuzatish orqali, uning badiiy asar tahlilida ko'p aspektli yondashuvga asoslanib, sistem-funksional, semantik- sintaktik, qiyosiy-chog'ishtirma va germenevtik metodlardan unumli foydalanganligining guvohi bo'ldik. U tadqiqotni yozish davomida ko'proq YU. Lotmaning badiiy asar strukturasi, semantikasi bilan bog'liq nazariy qarashlariga tayangan.

e) Nargiza Pazlitdinova. "Boburnoma"dagi fitonimlar haqida ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2017-yil 2-son).

Maqolada Bobur keltirgan fitonimlar haqida ma'lumotlar lingvobotanik xarakterga ega ekanligi, ayniqsa, qovun hamda uzum haqida batafsil ma'lumot

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

keltirgani qayd etib o'tilgan. Qovunning keltirilgan nomlari "Ismoil shayxiy" (shaxs nomlari) va Axsi qovuni (joy nomlari) ga nisbatan ikki guruhga tasniflanadi: antropofitonimlar va topofitonimlar. "Boburnoma"da keltirilgan ayrim meva nomlari etimologiyasi ham tahlilga tortiladi. Faqatgina mevali daraxtlar emas, balki manzarali daraxt nomlari qalamga olinganligi misollar bilan ko'rsatib beriladi. Fitonimlardagi tarixiy variantlilik, hududlararo tarqalish jihatlari ham e'tiborga olingan.

f) Iroda Boltaboyeva. "Boburnoma"dagi oykonimlarni o'rganishga doir ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2010-yil 4-son).

Maqolada "Boburnoma"dagi oykonimlar mamlakatlar, shaharlar, qishloq va kent, qal'a va qo'rg'onlar, rabotlar nomlari kabi guruhlarga tasniflanadi. Ayrim oykonimlarning tarixiy etimologiyasi hozirgi davr bilan qiyoslanadi. Oykonimlarning nomlanish tamoyillari ham quyidagicha guruhlarga bo'linadi: shaxs, etnonim, kasb-hunar, o'simlik, miqdoriy belgi, relyef xususiyat bilan bog'liq oykonimlar. Kandibodom, Kashmir, Lamg'on kabi oykonimlarning etimologiyasiga alohida to'xtalinadi. Ba'zi aholi maskanlarining ikki yoki uch nomlar bila atalishiga misollar keltiriladi.

g) Zulxumor Xolmanova. "Boburnoma"dagi milliy mulozamat ko'rnishlarini ifodalovchi yukun leksemasi haqida ("Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2006-yil 1-son).

Maqolada "Boburnoma" haqida atroflicha ma'lumot berilib, yukun leksemasining tarixiy etimologiyasi xususida fikr yuritilib, yodnoma matnidagi ma'nolari ham alohida tadqiq etiladi. Mazkur leksema faqatgina jisman egilish ma'nosida emas, balki ruhiy harakat – ruhan bukilishni ham bildirishi asardan keltirilgan misollar bilan isbotlanadi. Maqolani o'qib shuni his etish mumkinki, yukun leksemasining ushbu tarzda o'rganilishi faqatgina adabiyot, tarix, tilshunoslik sohalarini birlashtirishdan tashqari, siyosatshunoslik – Bobur yashagan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

davr diplomatiyasining nozik qoidalarini ham o'zida aks ettiradiki, bu, albatta, ko'plab hodisalarning mohiyatini bilishga yo'l ochadi.

h) Zulxumor Xolmanova. "Boburnoma"dagi tibbiy atamalar ("Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2006-yil 3-son).

Maqolada homiylik haqida mulohazalar keltirilib, "Boburnoma"da Alisher Navoiyga berilgan ta'rif ham tahlil qilinadi. Boburning tabiblarga munosabati uning Yusufiy (ibn Muhammad ibn Yusuf at-tabib al- Hiraviy) tabibi orqali ko'rsatib beriladi. Asarda tilga olingan davolash usullari - oyoqdagi o'q yarasini davolash; kasallik nomlari – obila, yara, dobg'uli, zahm-yara, jarohat, qort; ichki kasallik nomlari – qulunj, mafosil, aflij, quyong, zocha, sohib uzr, chupchug' bezgak, kalolat, hasba, isitma, muhriq isitma, isitmoq, rezandaliq, oriza; dori-darmon nomlari: mehrigiyoh, yabruhus- sanam, qulan quyrug'i, aqoqir, murch, buchqoq; maxsus tayyorlangan dorilar nomi – jullo, basit, mustahil, mus'hil, doruyi kor, ma'jun, darman; davolash jarayoni bilan bog'liq atamalar - tashxis, fasd qilmoq, irtikob qilmoq, behuzurluq, mazarrat kabi atamalar asar matnidan keltirilgan misollar bilan isbotlanadi.

i)Nosirjon Oxunov. "Boburnoma"da toponimlar talqini ("Til va adabiyot ta'limi" jurnali , 2015-yil 4-son).

Maqolada "Boburnoma"da keltirilgan oykonimlar (yuqorida keltirilgan f banddagidek), gidronimlar esa daryo; buloq-chashma; ariq, hovuz , soy; guzar (kechuv); ko'llar, ko'priklar nomlari guruhlariga tasniflanib, misollar beriladi. Yer sathidan balandda turuvchi obyektlarning atoqli otlari- oronimlar quyidagicha guruhlarga bo'linadi: Tog', ko'tal, dara, dovon, tepa, gumbaz, g'or nomlari kabi. Savolak Parbat, Siyohob, Takasekretku, Xodarvesh kabi joy nomlarining atalish sabablari va ular bilan bog'liq etimologik rivoyatlar keltirilgani alohida ta'kidlab o'tilgan. Ayniqsa, tahlil jarayonida joy nomlarining o'zbek, fors- tojik tillaridan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

kirib kelganligi haqida ayrim mulohazalar borki, bunday jarayon keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajaradi.

2.2. Boburning tasavvufiy qarashlari o'rganilgan maqolalar.

a) Sayfiddin Rafiddinov. Boburning irfoniy qarashlari ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2013-yil 5-son).

Maqolada Boburning islom dini, tasavvuf g'oyalariga munosabatini o'zida aks ettirgan she'riy namunalari tahlil qilinadi. Uning Abdurahmon Jomiy va Xoja Ahror Valiyga munosabati ham alohida e'tirof etiladi. Ayniqsa, Bobur va Xoja Ahror Valiy orasidagi ma'naviy bog'lanish turli voqea- hodisalar bilan dalillanadi. Boburning so'fiyona qarashlari, zohidlik, tavba va nadomat g'oyalari o'z ifodasini topgan g'azal, masnaviy, ruboiy, tuyuqlariga misollar keltiriladi:

…Oyoq Haqning talabida "yurumagani", ko'ngil uning "havasida churumagani"dan afsuslanib, dunyo lazzatlari va nafsning xoy-u havaslarini mazammat qiladi. "Shahvatu nafs"ning kuchli dushman ekani, minglab odamlarni "zabun" qilgani, qo'lga kiritilgan ne'matlar, hukmu saltanatlarning bari o'tkinchi-yu foniy, Tangrini topish faqat uning tavfiqi bilangina bo'ladi:

Tut quloqkim, budurur tahqiqi,

Tengrining bo'lmag'uncha tavfiqi.

Mumkin ermas bo'la olmoq hech ish,

Nega kerak sanga buncha pechish,

Kirdikoro, manga tavfiqe ber!

Yurumakka rahi tahqiqe ber!

b) Sultonmurod Olim. Bobur va sufiylar ("Tafakkur" jurnali, 2006-yil 4-son).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maqola badia, an’ananing boshi, ota tutgan yo’l, Boburning piri, qasos va oqibat, shahid ketgan shayxlar, shoh va darvesh, avliyo ruhi yoxud tushdagi karomatlar, tarjima sharofati, badal, ma’naviy siyosat, rag’bat kabi, ”qism”lardan iborat. Mazkur “qism”lar ma’lum bir ma’noda Boburning jismiyati hamda ruhiyati his qilgan tasavvufiy hodisotlar demakdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida muhim ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan fenomen sifatida qaraladi. Uning badiiy merosi, xususan, “Boburnoma” asari, she’riy devonlari hamda nasriy asarlari o‘zining badiiy teranligi, falsafiy mushohadalari va tarixiy aniqligi bilan ajralib turadi. Bobur asarlari o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini, insoniy tuyg‘ular va ruhiyatni, shuningdek, tabiat go‘zalliklarini chuqur estetik idrok asosida yoritgani bilan o‘zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab bergan.

Bobur shunoslik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllandi. M. Shayxzoda, V. Abdullayev, A. Qayumov, H. Boltaboyev, N. Komilov kabi olimlar Bobur ijodini turli jihatlardan — tarixiy manbashunoslik, poetika, tilshunoslik va adabiy tahlil nuqtai nazaridan tadqiq etdilar. Ularning izlanishlari Bobur shaxsiyati, adabiy uslubi, estetik qarashlari hamda tarixiy tafakkurining ko‘p qirrali mohiyatini ilmiy asosda yoritib berdi.

So‘nggi yillarda bobur shunoslikda qiyosiy adabiyotshunoslik, madaniyatlararo tadqiqot va kontekstual tahlil metodlarining qo‘llanishi Bobur merosini global adabiy jarayonlar doirasida o‘rganish imkonini yaratmoqda. Bobur ijodining xalqaro miqyosda tadqiq qilinishi uning asarlaridagi insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat, ilmga intilish va tabiatga mehr kabi umuminsoniy g‘oyalarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Yuqoridagi maqolalarni o'rganish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, Bobur lirikasidagi har bir janr yoki ,,Boburnoma" da tadqiq etilishi zarur bo‘lgan masalalar juda ko'p. Chunki Bobur shunchaki shoh, shoir emas, balki Javoharla'l Neru ta'kidlaganidek, dilbar shaxs. Mazkur omil Bobur va asarlarining umrboqiyligini ta'minlaydi, desak adashmagan bo'lamiz.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining har tomonlama ilmiy o‘rganilishi o‘zbek adabiyotining nazariy asoslarini boyitish, milliy tafakkurning tarixiy uzviyligini ta’minlash va jahon adabiyoti kontekstida o‘zbek adabiy merosining o‘rnini aniqlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bobur shunoslikning yanada rivojlanishi esa o‘zbek adabiyotshunosligining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, milliy adabiy an’analarni chuqur tahlil qilish hamda ularni zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida qayta baholash jarayoniga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобур. Девон. (Кобул нашрига такмила, кушимча). Тошкент: Шарк, 2004.
2. Bobur. Devon. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3."Tafakkur" jurnali
4. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali
5. "O‘zbek tili va adabiyoti" jurnali
6. Yusupova D. Sharq mumtoz poetikasi. Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Yangi kitob, 2019.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mahrami asror topmadim. Toshkent: Fan, 1993.
9. "Sharq yulduzi " jurnali. (1995- 2010).